

**GLOBALLASHUV JARAYONLARIDA SHARQ
MUTAFAKKIRLARINING TA'LIM VA TARBIYA
HAQIDAGI PEDAGOGIK QARASHLARINING AHAMIYATI**

Razzoqov Qosimbek Quvanovich
Jizzax politexnika instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti (PhD)
Razzoqova Surayyo Muzaffarovna
202-25 Qurilish muhandisligi talabasi

Annotatsiya. Maqolada globallashuv tushunchasi, sharq mutafakkirlari va allomalarining ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalaridagi pedagogik qarashlari, islomda bolalar tarbiyasi to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, odob, axloq, komil inson, komillik, insonparvarlik, pedagogika, milliy qadriyat

**EDUCATION AND UPBRINGING OF EASTERN THINKERS IN THE
PROCESSES OF GLOBALIZATION THE IMPORTANCE OF HIS
PEDAGOGICAL VIEWS ON**

Razzakov Kasymbek Kuvanovich
Jizzakh Polytechnic Institute
Associate Professor of the Department of "Social Sciences" (PhD)
Razzokova Surayyo Muzaffarovna
202-25 Civil Engineering student

Abstract. The article discusses the concept of globalization, the pedagogical views of Eastern thinkers and scholars on education and upbringing, ethics, and child-rearing in Islam.

Keywords: Upbringing, manners, morality, perfect person, perfection, humanism, pedagogy, national values

Globalashuv sharoitida dunyo mamlakatlari barcha sohalarda, barqaror taraqqiyot yo'lida o'zlarining o'rinlariga ega bo'lib bormoqda. Albatta, bunda har bir davlatning tabiiy va iqtisodiy omillari bilan bir qatorda inson omili, jumladan, yosh avlodlarni tarbiyalash, shart-sharoitlar yaratish, ularning intellektual salohiyatidan samarali foydalanish muhim.

Chunki prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda".

Millatimiz o'zining uzoq tarixi davomida yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega bo'lib, avlodlarda gumanizm, insonparvarlik, kamtarlik, mehribonlik, mehnatsevarlik, do'stlik, iymon-e'tiqod, mehr-oqibat, odoblilik, axloqlilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishning o'ziga xos tajribasini boshdan o'tkazib to'plagan. Bizga ma'lumki, ma'naviy-axloqiy fazilatlar hech qachon o'z-o'zidan vujudga kelib qolmaydi, aksincha ularning kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjud ekanligidadir.

Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat ta'lim muassasalarida, balki radio-televideniye, matbuot, internet, telefon kabi turli texnik vositalar orqali ham turli-tuman, rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda.

Dunyoda axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda o'quvchi-yoshlarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz.

Yoshlarimizni tarbiyalash ularga bilim berish, o'rgatish uchun birinchi galda, sharq mutafakkirlarining duru-gavhariga teng ma'naviy meroslari misol bo'la

oladi. Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-siyosiy, falsafiy ta'limotlariga tayanib ish ko'rilsa, tarbiya ta'sirchanligi yanada mukammallik kasb etadi. Aslida Markaziy Osiyo allomalarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor asosiy o'rinda turadiki, bu bevosita inson kamolotini shakllantirishga omil bo'la oladigan ijtimoiy hodisadir.

Sharq Renessansi deb nom olgan IX-XV asr Markaziy Osiyo ma'naviy madaniyatining eng yuksaklikka ko'tarilgan, boy davri bo'lib, bu davrda ilm-fanning ikki yo'nalishi, birinchisi - inson uchun tabiiy fanlardirki, u aql ko'zi bilan egallanadi, ikkinchisi - bu fanlar inson tomonidan, boshqa kishilardan taqlid qilib o'rganiladi, ular asosida shariat qonunlari yotadi.

Bu davrda Sharq madaniyatini umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarish markazi "Ma'mun akademiyasi" (IX asr, Bag'dod, "Baytul hikmat") tashkil etildi. Akademiya ilmiy ijodkorlari faoliyatida Yaqin va O'rta Sharq xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyatining qo'shilishi asnosida hozirgi Markaziy Osiyo madaniyatining maxsus bir-biridan ajratilmagan ko'p qirrali qorishiq turi vujudga keldi.

Bunday ko'p qirrali ilmiy qadriyatlarning maydonga kelishida vatandoshlarimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (780-850), Ahmad al-Farg'oniy (247-861), Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy (IX asr), Abu Nasr Forobiy (870-950), Abu Ali Ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (973-1050) va boshqalarning xizmatlari katta bo'lgan. Sharq mutafakkirlarining ma'naviy madaniyat sohasiga qo'shgan ulushlari nihoyatda boy bo'lib, mazmunan qadriyatlarning barcha yo'nalishlarini qamrab olganligi bilan xarakterlanadi. Forobiy pedagogik qarashlarini, ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limotini o'rganishda inson xislatlari to'g'risidagi falsafiy fikrlari nihoyatda muhim sanaladi. Forobiy o'zining falsafiy qarashlarida, inson barcha boshqa jismlarda bo'lmagan qobiliyat va kuchga, ruhiy quvvatga, aql va so'zlash qobiliyatiga egaligi, bu kuch uni tabiatdagi boshqa jismlardan ajratib turishi va uning ustidan hokim bo'lish imkoniyatini berganligi namoyon bo'ladi. Forobiy o'zining qarashlarida insonga nisbatan "faol aql" degan tushunchani ilgari suradi.

Forobiy o‘zining “Baxt-saodatga erishuv haqida”, “Fanlarning tasnifi”, “Ilmlar va san’atlar fazilati” kabi ko‘plab risolalarida insonning ma’naviy rivojlanishi ilm-ma’rifatga bog‘liqligini ta’kidlaydi. Abu Rayhon Beruniy bilim umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganishning kaliti ekanligini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, ilm-ma’rifatli odam jamiyat taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoqdir. “Ilmning foydasi ochko‘zlik bilan oltin-kumush to‘plash uchun bo‘lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo‘lishdir”.

Muhammad al-Xorazmiy birinchi bo‘lib koinot obyektlarining harakatlari hamda yerdagi nuqtalarining joylashishini jadval ko‘rinishida aks ettirib, tajriba-kuzatish va tadqiqotlar metodlarini ilmiy jihatdan asoslab berdi, yagonalikning birligi tamoyili, shuningdek, alohida va umumiy, induksiya va deduktsiyalarning mohiyatini aniqlashtirdi; matematik masalalarni yechishning algoritmik metodini ishlab chiqdi. Bu metoddan bugungi kunda ham foydalanib kelinmoqda.

Ibn Sino shuningdek, bolalarni maktabda o‘qitish va ularga kasb-hunar berish zarurligini qayd etar ekan, ta’lim-tarbiyada quyidagi tamoyillarga rioya qilish zarurligini ta’kidlaydi.

- yoshlarga ta’lim berishda birdaniga kitobga band qilib qo‘ymaslik;
- ta’limda engildan og‘irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo‘lishi;
- jamoa bo‘lib maktabda o‘qishga e’tibor berish;
- bilim berishda bolalarning bilimga moyilligi, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o‘qishni jismoniy mashqlar bilan qo‘shib olib borish.

Xulosa qilib aytganda, buyuk ajdodlarimizga xos azmu shijoat, xalqimizning metin irodasi, tobora ulg‘ayib kelayotgan barkamol avlodimizga tayanib, jamiyatimiz hayotini yanada rivojlantirish yo‘lini izchil davom ettirish-eng dolzarb vazifamiz bo‘lib qoladi. Yuqoridagi fikrlardan ma’lum bo‘ladiki, sharq mutafakkirlari o‘zlarining axloqiy qarashlari bilan bir necha asrlardan beri ajdodlarimiz tafakkuruni boyitib kelmoqda. Hozirgi kunda ham ularning

bunyodkor g'oyalari yosh avlodni shaxs qilib tarbiyalashda o'z qadr-qiyamatini yo'qotgani yo'q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Jismoniy va barkamol yoshlar-bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir// Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -T.: O'zbekiston, 2017.
2. I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" – T.:Ma'naviyat 2008 yil.
3. A.Zunnunov, A.U.Mahkamov. «Didaktika». T. «Sharq» 2006 yil.
4. A.Avloniy. «Turkiy guliston yoxud axloq», «O'qituvchi» nashriyoti, T.:1993 yil.
5. Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shahri» «A.Qodiriy» nashriyoti, T.:1993 yil.
6. A.I.Avazboyev. Kasbiy pedagogika. – T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2014 yil.
7. Z.B.Jalilov. Sharq mutafakkirlari merosini o'rganishning didaktik metodlari. Zamonaviy ta'lim jurnali. 2017 yil, 5-son.
8. O. Musurmonova. "Umumiy pedagogika". T.: Yoshlar nashriyoti. 2020. B. 161
9. A.Avloniy. «Turkiy guliston yoxud axloq», «O'qituvchi» nashriyoti, T.:1993.
10. Razzoqov Q. K. (2023). ATTENTION TO EDUCATION IN THE CHISHTIYA SECRET. Research Focus, 2(2), 111-114.
11. Razzoqov Q. K. (2021). The Moral Importance of Humanity and Patriotism in Chistiya and Kubraviya. International Journal on Orange Technologies, 3(3), 98-103.